

Qurbonova Go'zal Rajab qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fandoktori (PhD), dotsent

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA SAVODGA TAYYORLASH – KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi 5 – 7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, Koreya Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan haftalik ish rejalari hamda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimidagi amaldagi yondashuvlar o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekistonda bolalarni savodga tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bolalarning maktabga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy etilgani yoritilgan. Shuningdek, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi asosida savodga tayyorlashning mazmuni va metodik asoslari tahlil qilinib, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning samarali jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, savodga tayyorlash, Koreya tajribasi, Ilk qadam dasturi, davlat talablari, integratsiya, pedagogik yondashuv, maktabga tayyorgarlik.

ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ОБУЧЕНИЮ ГРАМОТЕ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА (НА ПРИМЕРЕ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ)

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ зарубежного и отечественного опыта подготовки детей 5–7 лет к школьному обучению. В частности, были изучены недельные планы работы, используемые в системе дошкольного образования Республики Корея, а также действующие подходы в системе дошкольного образования Узбекистана. В исследовании освещается, что вопрос подготовки детей к грамоте в Узбекистане поднят на уровень государственной политики, а в результате реформ, проводимых в последние годы в сфере дошкольного образования, внедрены современные педагогические подходы, направленные на обеспечение готовности детей к школе. Также проанализированы содержание и методические основы подготовки к обучению грамоте на основе «Государственных требований к развитию детей раннего и дошкольного возраста» и национальной учебной программы «Илк кадам», обоснованы эффективные аспекты интеграции зарубежного опыта в национальную систему образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, подготовка к грамоте, корейский опыт, программа «Первый шаг», государственные требования, интеграция, педагогический подход, подготовка к школе.

PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR LITERACY BASED ON INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCE: THE CASE OF THE REPUBLIC OF KOREA

Abstract. This article provides a comparative analysis of foreign and national experiences in preparing 5-7 year old children of preschool age for school education. In particular, weekly work plans used in the preschool education system of the Republic of Korea and current approaches in the preschool education system of Uzbekistan were studied. The study highlights that the issue of preparing children for literacy in Uzbekistan has been raised to the level of state

policy, and that as a result of the reforms implemented in the field of preschool education in recent years, modern pedagogical approaches aimed at ensuring children's readiness for school have been introduced. The content and methodological foundations of literacy training based on the "State Requirements for the Development of Children of Early and Preschool Age" and the national curriculum "Ilk Qadam" are analyzed, and the effective aspects of integrating foreign experiences into the national education system are substantiated.

Keywords: preschool education, literacy training, Korean experience, Ilk Qadam program, state requirements, integration, pedagogical approach, school preparation.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash masalasi dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qoraladi. Har bir davlatning tarixiy, madaniy va pedagogik an'analari mazkur jarayonning mazmuni hamda tashkil etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish savodga tayyorlashning umumiy qonuniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ularning asosida bolaning shaxsiy rivojlanishi, nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va bilishga bo'lgan qiziqishini qo'llab - quvvatlash g'oyalari yotadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida savodga tayyorlash jarayoni bolaning tabiiy rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Aksariyat rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolani erta o'qishga majburiy o'rgatish emas, balki unda yozma nutqni egallash uchun zarur bo'lgan psixologik va kommunikativ tayyorgarlikni shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli ta'lim jarayonida o'yin faoliyati, muloqot, kuzatish, tajriba va ijodiy mashg'ulotlarga keng o'rin beriladi. Maktabgacha ta'lim inson kapitalini shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning nutq faoliyati, tafakkuri, ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, muloqot madaniyati hamda kelgusidagi o'qish va yozish faoliyatining poydevori yaratiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabga qadam qo'yayotgan bolaning muvaffaqiyati nafaqat uning intellektual salohiyati, balki savodga tayyorgarlik darajasi bilan ham belgilanadi. So'nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlari maktabgacha ta'lim sifatini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirmoqda. Xususan, Janubiy Koreya ta'lim tizimi qisqa tarixiy davr ichida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mamlakatda maktabgacha ta'lim bolalarni maktabga tayyorlashning alohida bosqichi emas, balki uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida qoraladi. Savodga tayyorlash jarayonida bolaga bosim o'tkazish emas, balki uning tabiiy rivojlanish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash, o'yin, muloqot va ijodiy faoliyat orqali til kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy tamoyil hisoblanadi.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy o'quv dasturida bolalarda ilk savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki nutqni boyitish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va yozishga tayyorlov ishlari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuni ham ahamiyatga olish kerakki, xorijiy ilg'or tajribalarni milliy tizimga moslashtirish masalasi hali yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Ayniqsa, Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim modelining savodga tayyorlashga oid metodik jihatlari hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, savodga tayyorlashning muvaffaqiyati bolaning erkin fikrlashi, ijodiy faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimlarida reproduktiv o'qitishdan ko'ra rivojlantiruvchi va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham bolalarni savodga tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bolalarning maktabga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar joriy etildi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi savodga tayyorlashning zamonaviy mazmunini belgilab berdi.

Asosiy qism. Milliy tajribada savodga tayyorlash nutq oʻstirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, atrof - muhit haqidagi tasavvurlarni boyitish va muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshiriladi. Bolalarda tovushlarni farqlash, soʻz boyligini kengaytirish, hikoya qilish, sheʼr yodlash va ertaklarni qayta soʻzlab berish kabi koʻnikmalarni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Milliy taʼlim amaliyotining oʻziga xos jihatlaridan biri xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishdir. Maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertaklar va milliy oʻyinlar bolalarning nutqiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ular nafaqat lugʻat boyligini oshiradi, balki fonematik eshituv, xotira va tafakkurning rivojlanishiga ham yordam beradi. Bugungi kunda Oʻzbekiston maktabgacha taʼlim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi, loyiha metodi, interfaol taʼlim va rivojlantiruvchi markazlar faoliyati orqali savodga tayyorlashning yangi shakllari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa bolalarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlarining eng dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar maktabgacha yosh davrida shakllantirilgan ilk savodxonlik kompetensiyalari bolaning keyingi taʼlim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita taʼsir koʻrsatishini isbotlamoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda savodga tayyorlash jarayoni faqat harf va tovushlarni oʻrgatish bilan cheklanmay, balki bolaning nutqiy, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qamrab oluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida qaralmoqda. Ilmiy adabiyotlarda "emergent literacy" (erta savodxonlik) tushunchasi keng qoʻllaniladi. Mazkur konsepsiyaga koʻra, savodxonlik bolaning maktabga kirganidan keyin emas, balki tugʻilgan kundan boshlab shakllana boshlaydi. Oiladagi muloqot, ertak tinglash, rasmlar kitoblarni tomosha qilish, kattalar bilan suhbat, oʻyin faoliyati va atrof-muhit bilan oʻzaro munosabat bolaning savodxonlik rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi. Nazariy jihatdan bu gʻoya konstruktivistik yondashuv bilan hamohang boʻlib, bola bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki faol tajriba, kuzatish va muloqot orqali uni mustaqil ravishda quradi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha taʼlimda oʻyin, tadqiqot, ijodkorlik va hamkorlikka asoslangan mashgʻulotlar eng samarali metodlar sifatida eʼtirof etiladi. Bolalar nutqining rivojlanishi savodga tayyorlashning markaziy komponenti hisoblanadi. Nutq orqali bola atrofdagi voqelikni anglaydi, fikrini ifodalaydi, muloqot qiladi hamda yozma nutqni oʻzlashtirish uchun zarur boʻlgan lingvistik tajribani toʻplaydi. Psixolingvistik tadqiqotlar lugʻat boyligi yuqori boʻlgan bolalar oʻqishni tezroq oʻzlashtirishini koʻrsatadi. Shuning uchun maktabgacha taʼlim tashkilotlarida hikoya qilish, dialog, drammatizatsiya, sheʼr yodlash va ertaklar bilan ishlash alohida metodik ahamiyatga ega.

Savodga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi fonologik ong hisoblanadi. Fonologik ong deganda bolaning soʻz tarkibidagi tovushlarni farqlashi, boʻgʻinlarga ajrata olishi, tovushlarni ketma-ketlikda idrok etishi va ularni tahlil qila olish qobiliyati tushuniladi. Tadqiqotlar fonologik ong rivojlangan bolalarda oʻqish va yozish malakalari tezroq shakllanishini koʻrsatadi. Shu bois rivojlangan davlatlar dasturlarida tovushli oʻyinlar, qofiya topish, boʻgʻinlarni ajratish, soʻzlarni taqqoslash kabi mashqlar keng qoʻllaniladi. Xalqaro tajribada ilk savodxonlikni rivojlantirishda kitobxonlik muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Kitoblar bilan boyitilgan rivojlantiruvchi muhit bolalarda kitobga nisbatan qiziqish uygʻotadi, tasavvurini kengaytiradi va nutqiy faollikni oshiradi. Tadqiqotlar natijasida, ota-onalar bolalarga muntazam kitob oʻqib bergan oilalarda maktabga tayyorgarlik darajasi yuqoriroq boʻlishi isbotlangan. Janubiy Koreya maktabgacha taʼlim tizimi aynan shu yondashuvni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etgan davlatlardan biridir. Koreya pedagogikasida savodga tayyorlash alohida fan sifatida emas, balki kundalik faoliyatning tabiiy qismi sifatida tashkil etiladi. Bolalar ertalabki suhbatlar, rolli oʻyinlar, rasm chizish, musiqa, tajribalar, tabiatni kuzatish va kitob mutolaasi orqali til koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Pedagog esa bilim beruvchi emas, balki rivojlantiruvchi muhitni tashkil etuvchi hamkor sifatida faoliyat yuritadi. Koreya tajribasining yana bir muhim jihati ota-onalar bilan tizimli hamkorlikdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotlari oilalarga metodik tavsiyalar beradi, uy sharoitida bajariladigan til rivojlantirish mashgʻulotlarini tavsiya etadi hamda bolalarning rivojlanish dinamikasini muntazam muhokama qiladi. Natijada taʼlim tashkiloti va oila oʻrtasida uzviy hamkorlik

shakllanadi. O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolaning shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, rivojlantiruvchi muhit yaratish, nutqni rivojlantirish hamda ilk savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat o'quv dasturida bolalarni o'qish va yozishga majburan o'rgatish emas, balki ularni maktab ta'limiga psixologik va metodik jihatdan tayyorlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning reproduktiv xarakterda tashkil etilishi, o'yin texnologiyalaridan yetarli foydalanilmasligi, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi va rivojlantiruvchi til muhitining yetarli emasligi savodga tayyorlash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili asosida shunday to'xtamga kelish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga tayyorlash ko'p omilli pedagogik jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati rivojlantiruvchi muhit, malakali pedagog, oilaviy qo'llab-quvvatlash va ilmiy asoslangan metodikalarning uyg'unligiga bog'liq. Janubiy Koreya tajribasi aynan mana shu omillarni kompleks tarzda amalga oshirishi bilan ajralib turadi va O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Janubiy Koreyaning bugungi kunda dunyoning eng samarali ta'lim tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilishi uzoq yillar davomida amalga oshirilgan izchil islohotlarning natijasidir. Mamlakatning maktabgacha ta'lim tizimi ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda takomillashib bordi.

Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim xususiyatlaridan biri "erta akademik ta'lim" va "erta savodxonlik" tushunchalarini bir-biridan aniq ajratishidir. Erta akademik ta'lim bolani maktab dasturini muddatidan oldin o'zlashtirishga yo'naltirsa, ilk savodxonlik konsepsiyasi bolaning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali o'qish va yozishga tayyorligini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra: 5-7 yoshli boladan mukammal o'qish yoki yozish talab qilinmaydi. Asosiy e'tibor quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi:

-  og'zaki nutqning ravonligi;
-  boy lug'at zaxirasi;
-  tovushlarni farqlash qobiliyati;
-  hikoya tuzish ko'nikmasi;
-  tinglash madaniyati;
-  kitobga nisbatan qiziqish;
-  yozuv uchun zarur bo'lgan mayda motorika.

Bu kompetensiyalar keyinchalik boshlang'ich ta'limda o'qish va yozishni muvaffaqiyatli egallash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Tahlillar Koreya tajribasida savodga tayyorlash quyidagi pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilishini ko'rsatdi.

Birinchi tamoyil — bolaga yo'naltirilgan ta'lim

Har bir bolaning rivojlanish sur'ati individual ekanligi e'tirof etiladi. Shu sababli barcha bolalarga bir xil natija talab qilinmaydi. Pedagog bolaning qiziqishi, ehtiyoji va rivojlanish darajasidan kelib chiqib mashg'ulotlarni moslashtiradi.

Ikkinchi tamoyil — o'yin orqali o'rganish

Koreya pedagogikasida o'yin bolaning asosiy faoliyati hisoblanadi. Savodga oid barcha elementlar didaktik o'yinlar, rolli sahnalar, konstruktorlar, dramatizatsiya va ijodiy faoliyat orqali o'rgatiladi. Bu esa bilimlarni majburiy emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil — integratsiyalashgan ta'lim

Savodga tayyorlash alohida mashg'ulot bilan chegaralanmaydi. Til rivoji tasviriy san'at, musiqa, matematika, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya va kundalik hayotiy vaziyatlarga uyg'unlashtiriladi. Masalan, sayr vaqtida daraxt barglarini kuzatish nafaqat ekologik bilimlarni, balki yangi so'zlarni o'zlashtirish va hikoya qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

To'rtinchi tamoyil — reflektiv muloqot

Mashg'ulot yakunida bolalar o'z taassurotlari, kuzatishlari va his-tuyg'ulari haqida erkin fikr bildiradilar. Ushbu refleksiya nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish

78 va muloqot madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Koreya maktabgacha ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning yuqori kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq. Tarbiyachilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadilar, zamonaviy metodikalarni o'rganadilar hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etiladilar.

Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida maktabgacha ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda [1]. Bu holat jamiyat taraqqiyotida bolalarning erta rivojlanishi muhim omil sifatida qaralayotgani bilan izohlanadi [2]. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limga kiritilgan investitsiya kelajak avlodning intellektual va ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shu nuqtai nazardan, Janubiy Koreya tajribasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ushbu mamlakatda erta bolalik ta'limi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda [4]. Xususan, Koreyada 3–5 yoshli bolalar uchun joriy etilgan milliy "Nuri" dasturi bolalarning jismoniy, ijtimoiy, hissiy va bilish rivojlanishini kompleks qo'llab - quvvatlashga qaratilgan [5]. Bu esa maktabgacha ta'limga bo'lgan qiziqishning global miqyosda ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim tizimida savodga tayyorlash faqat o'qish va yozishga o'rgatish bilan cheklanmaydi. U bolaning nutqiy rivojlanishi, fonologik ongining shakllanishi, kommunikativ kompetensiyasi, grafomotor tayyorgarligi, kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini o'zaro uyg'unlashtiruvchi uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Xalqaro tajribalar ham erta bolalik davridagi sifatli ta'lim bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratishini tasdiqlaydi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimining muvaffaqiyati bir nechta asosiy omillarga tayanadi. Jumladan, bolaga yo'naltirilgan ta'lim, o'yin asosidagi pedagogika, rivojlantiruvchi til muhiti, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ota-onalar bilan tizimli hamkorlik va pedagoglarning muntazam kasbiy rivojlanishi savodga tayyorlash sifatini ta'minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi. Savodga tayyorlash alohida fan sifatida emas, balki kundalik faoliyatning barcha yo'nalishlariga integratsiyalashgan holda tashkil etilishi bolalarda bilimlarni tabiiy ravishda egallashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar savodga tayyorlash mazmunini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan. "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi, davlat ta'lim standartlari hamda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan amaliy ishlar maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, fonologik ongni rivojlantirish bo'yicha innovatsion metodlarni keng joriy etish, kitobxonlik muhitini boyitish, ota-onalar bilan hamkorlikning yangi shakllarini ishlab chiqish hamda pedagoglarning xalqaro tajriba asosidagi malakasini oshirish dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri sifatida K-LITERACY modeli ishlab chiqildi. Mazkur model savodga tayyorlashning asosiy komponentlari – bilimga boy rivojlantiruvchi muhit, nutq rivojlantirish, interfaol o'yinlar, tanqidiy fikrlash, emotsional qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyati, rivojlantiruvchi baholash hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yagona pedagogik tizimga birlashtiradi. Modelning afzalligi shundaki, u xorijiy tajribani bevosita ko'chirishga emas, balki uni O'zbekistonning milliy ta'lim tizimi, madaniy qadriyatlari va amaldagi davlat o'quv dasturlari bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim sifati ko'p jihatdan ta'lim jarayonidagi o'zaro munosabatlar sifatiga bog'liq. Pedagog va bola, bola va tengdoshlari, pedagog va ota-onalar hamda ta'lim muhiti o'rtasidagi mazmunli hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar ham aynan "process quality"–ta'lim jarayonining sifati–maktabgacha ta'lim samaradorligining asosiy mezonlaridan biri ekanligini qayd etadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan tavsiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida savodga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, oila va ta'lim tashkiloti hamkorligini mustahkamlash hamda davlat o'quv dasturlarini boyitishda foydalanilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda K-LITERACY modelini tajriba-sinovdan o'tkazish, uning samaradorligini statistik jihatdan asoslash, sun'iy intellekt va STEAM texnologiyalarini ilk savodxonlikni rivojlantirish bilan integratsiyalash hamda Janubiy Koreya, O'zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlar

tajribalarini qamrab oluvchi ko'p mamlakatli qiyosiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. South Korea Ministry of Education. Early Childhood Education in Korea. Available
2. Kim, E. (2019). Understanding the 2019 Revised Nuri Curriculum. Korea Institute of Child Care and Education (KICCE).
3. OECD. (2017). Starting Strong 2017: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. Paris: OECD Publishing.
5. South Korea Ministry of Education. Early Childhood Education in Korea.
6. Kim, E. (2019). Understanding the 2019 Revised Nuri Curriculum. Korea Institute of Child Care and Education (KICCE).
7. Ministry of Education of the Republic of Korea. (2019). Nuri Curriculum.
8. Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan. (2026). Ilk qadam milliy o'quv dasturi.